



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING DIVIDEND POLICY IN JOINT-STOCK COMPANIES

¹*Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna*

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Bunda, dividend siyosatining nazariy asoslari hamda uning amaliy qo'llanilishi tahlil qilinadi. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini shakllantirish jarayonida risklarni boshqarish strategiyalarini integratsiya qilish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, dividend siyosatini takomillashtirishga doir istiqbolli yo'nalishlar ham ko'rib chiqilgan.

Eng. - This article explores the opportunities for developing dividend policy in joint-stock companies. It analyzes both the theoretical foundations of dividend policy and its practical application. In particular, the study substantiates the need to integrate risk management strategies into the process of formulating dividend policy in joint-stock companies. Furthermore, the article examines prospective directions for improving dividend policy.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *aksiyadorlik jamiyatlari, dividend, dividend siyosati, risk, risklarni boshqarish strategiyasi, taqsimlanmagan foyda, soliq, likvidlik.*
❖ *joint-stock companies, dividend, dividend policy, risk, risk management strategy, retained earnings, tax, liquidity.*

Kirish.

Kompaniyalarda samarali dividend siyosati strategiyalarini ishlab chiqishning ahamiyati aksiyadorlar kutilmalari, korporativ moliyaviy barqarorlik va uzoq muddatli o'sish maqsadlarini muvozanatlash zaruratida namoyon bo'ladi. To'g'ri tuzilgan dividend siyosati kompaniyaning bozordagi obro'sini oshirishi mumkin, chunki u rahbariyatning shaffoflik, hisobdorlik va aksiyadorlar uchun izchil qiymat yaratishga intilishidan dalolat beradi, investorlarning ishonchini oshiradi va uzoq muddatli kapitalni jalb qilishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, dividend siyosati firma kapitali tarkibiga bevosita ta'sir qiladi, chunki dividendlar va reinvestitsiyalar o'rtasida daromadlarni taqsimlash tashqi

moliyalashtirishga bog'liqlik darajasini belgilaydi, kompaniyaning risk profilini va kapital qiymatini shakllantiradi. Dividend siyosati bozor sharoitlarining dinamik xarakterini hisobga olishi kerak, chunki, makroiqtisodiy tendensiyalar, foiz stavkalari va me'yoriy-huquqiy bazalar optimal to'lov nisbati va taqsimlash strategiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Dividend siyosatini o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtira olmaydigan kompaniyalar bozorning keskin o'zgarishlari yoki iqtisodiy pasayish davrida aksiyadorlar ishonchini yo'qotishi, raqobatbardosh ustunlikdan mahrum bo'lishi hamda kapital bozorlarida moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bundan tashqari, dividend siyosatini ishlab chiqishda

soliq to'lovlarini ham inobatga olish zarur. Chunki, dividendlar va kapital o'sishiga nisbatan qo'llaniladigan turli soliq tartiblari investorlarning investitsion afzalliklari hamda kompaniya aksiyalariga bo'lgan umumiy talabga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jahon kapital bozorlarida esa dividend siyosatini ilg'or xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashtirish xorijiy investorlarni jalb etish hamda transchegaraviy moliyaviy ekotizimlarga integratsiyalashishda muhim omil hisoblanadi.

Samarali dividend siyosatini ishlab chiqish kompaniya rahbariyati va aksiyadorlar manfaatlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Dividend siyosatini ishlab chiqishda sohaga xos omillar kapital zichligi, tartibga solish cheklovlari va raqobat muhitining dinamikasi ham inobatga olinishi lozim. Shuningdek, dividend siyosatining ahamiyati alohida kompaniyalar darajasidan chiqib, makroiqtisodiy darajada ham o'z aksini topadi. Chunki, umumiy dividend tendensiyalari iqtisodiy barqarorlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida investor kayfiyatiga ta'sir ko'rsatadi va turli aktivlar bo'yicha kapital oqimlarini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli, dividend siyosatining mazkur jihatlarini chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

D. Pena-Martel va boshqalarning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, dividendlar minoritar aksiyadorlar va menejerlar o'rtasidagi agentlik ziddiyatlarini kamaytiradi, chunki ular menejerlarning o'z manfaatlariga sarflashlari mumkin bo'lgan pul miqdorini kamaytiradi hamda kapital bozorida ishtirok etishni oshirish orqali ko'proq kapital jalb qilish imkoniyatini yaratadi [1]. Shu bois, dividend siyosati korxonaning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Z. Sun va boshqalar erkin pul oqimlari nazariyasiga asoslanib, dividend to'lovlari erkin pul oqimining agentlik xarajatlarini kamaytirishga yordam berishini va

menejerlarni ortiqcha investitsiya qilishdan himoya qilishini ta'kidlaydilar. Manfaatdor tomonlar nazariyasida esa dividend to'lovlari aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi [2].

S. Seo va J. Li ichki omillarning dividend siyosatiga ta'sirini o'rganib, dividend to'lash qarori kompaniyaning kelajakda kutilayotgan pul oqimi va faoliyati natijalariga asoslanishini qayd etishadi [3].

D. Chronopoulos va boshqalar ta'kidlashicha, likvidlik va dividendlar o'rtasidagi o'zaro munosabat banklarning dividend siyosatiga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Likvidlikning yuqoriligi banklarga aksiyadorlarga dividend to'lash uchun naqd mablag'lardan foydalanish imkonini berib, ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq, ba'zi holatlarda bu holat ichki naqd pul zaxiralari va kapitalni oshirish zarurati bilan bog'liq holda salbiy ta'sir ko'rsatishi ham ehtimoldan xoli emas [4].

S. Sterenchak va J. Kubyaklar esa aksiya likvidligi nafaqat dividend siyosatiga ta'sir qilishi, balki aksincha, dividendlarni to'lash ichki moliyalashtirish manbalaridan foydalanishni kamaytirishi mumkinligini qayd etishgan [5].

A. Zohid va boshqalar dividendlarni biznesga investitsiyalarning asosiy maqsadi sifatida ko'rib, aksariyat tadqiqotlar va nazariyalar dividendlarning motivatsiyasi, determinantlari hamda moliyaviy va boshqaruv omillarining korporativ dividend siyosatiga ta'siriga qaratilganligini ta'kidlaydilar [6].

P. Guo va boshqalar dividend to'lovlarini oshirishning investorlar uchun ta'sirini bo'yicha olib brogan tadqiqotlarida dividend noaniqligidan kelib chiqadigan qo'shimcha xavfni kamaytirish uchun dividend to'lovlarining oshirilishi investorlarning optimal portfel talabi va daromadiga ijobiy ta'sir qilishi mumkinligini aniqlashgan [7].

D. Martel fikricha, dividendlar kompaniya rahbariyati va minoritar

aksiyadorlar o'rtasidagi agentlik ziddiyatlari natijasida yuzaga keladi [8].

Shuningdek, korxona va mulkdorlar o'rtasidagi dividend siyosatida aks ettirilgan foydani taqsimlash bo'yicha moliyaviy munosabatlar murakkab va ko'p qirrali hisoblanadi. Dividendlarning mohiyati va paydo bo'lish tabiati oqilona dividend siyosatida dividendlar va qayta investitsiyalar o'rtasidagi me'yoriy nisbatni aniqlash, minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish, investitsiya jozibadorligini oshirish, agentlik xarajatlarini kamaytirish va bozor nizolarini kamaytirishga qaratilishi lozim [9]. Yuqoridagi tadqiqot natijalarini inobatga olgan holda, oqilona dividend siyosatining roli alohida e'tiborga loyiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Kompaniyalarda dividend siyosatini ishlab chiqish ko'p qirrali jarayon bo'lib, bu jarayon aksiyadorlarning kutgan natijalari, korporativ moliyaviy holat va uzoq muddatli o'sish maqsadlari o'rtasida muvozanatni talab qiladi. Dividend siyosatini to'g'ri belgilashning eng muhim jihatlaridan biri uning umumiy korporativ strategiyaga mos kelishini ta'minlashdir. Chunki, dividendlar bo'yicha qarorlar kompaniyaning rentabellik, kengayish va bozor pozitsiyasi bilan bog'liq maqsadlarini to'ldirishi zarur.

Dividend siyosati foyda taqsimoti va daromadlarning kelajakdagi loyihalarga qayta yo'naltirilishi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Bu innovatsiyalar, raqobatbardoshlik va o'zgaruvchan bozor muhitida barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, dividend siyosatining shaffof va izchil ravishda aks ettirilishi muhimdir. Dividendlar bo'yicha qarorlar, to'lov sabablari

va kelajak prognozlari haqida aniq axborot berilishi investor faolligini rag'batlantiradi hamda kapital bozoridagi noaniqlikni kamaytiradi. Shaffoflik investor ishonchini mustahkamlab, boshqaruv va aksiyadorlar manfaatlarini uyg'unlashtiradi.

Zamonaviy global muhitda kompaniyalar dividend siyosatini inflyatsiya, foiz stavkalari o'zgarishi va geosiyosiy xatarlar kabi iqtisodiy omillarga moslashtirishi kerak.

Dividend siyosatini ishlab chiqishda kompaniyaning hayotiylik sikli ham muhim ahamiyatga ega. Barqaror pul oqimlariga ega kompaniyalar odatda yuqori dividend to'lovlarini amalga oshiradi, o'sishga yo'naltirilgan yosh kompaniyalar esa foydani qayta investitsiya qilishga moyil bo'ladi. Bundan tashqari, soliq samaradorligi dividend siyosatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi, chunki turli mamlakatlardagi dividend soliqlari investorlar uchun soliqdan keyingi daromadni optimallashtirish imkoniyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Dividend siyosati o'zgaruvchan bozor sharoitida doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishi va yangilanib borilishi lozim. Bu jarayonga aksiyadorlar, tahlilchilar va tartibga soluvchi organlar jalb etilishi dividend siyosatining shaffofligi, ishonchliligi va barqarorligiga xizmat qiladi.

Dividend bo'yicha qarorlar ichki moliyaviy nazorat va ma'lumotlarga asoslangan tahlillar bilan qo'llab-quvvatlanishi zarur. Bu pul oqimlarini prognoz qilish va to'lov qobiliyatini baholashda aniqlikni oshiradi. Dividend siyosati va kapital tuzilmasi o'rtasidagi bog'liqlik ham muhim omildir. Dividend to'lovlari leverage, kapital qiymati va moliyaviy moslashuvchanlikka ta'sir ko'rsatadi. Dividendlar va taqsimlanmagan foyda o'rtasidagi muvozanatni ehtiyotkorlik bilan boshqarish orqali kompaniyalar kapital tuzilmalarini optimallashtirishlari va uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishishlari mumkin.

Dividend siyosati, shuningdek, turli investor guruhlarining ehtiyojlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Barqaror daromad izlovchi investorlar muntazam dividendlarni afzal ko'rsa, o'sishga yo'naltirilgan investorlar qayta investitsiyani ustun ko'rish mumkin. Ushbu imtiyozlarni tushunish kompaniyaga kengroq aksiyadorlar bazasini jalb qilish va ushlab turishga yordam beradi.

Dividend siyosatining "signal" funksiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Dividend e'lonlari kompaniyaning kelajakdagi daromadlari va moliyaviy holati haqida bozorga axborot uzatadi. Iqtisodiy noaniqlik sharoitida dividendlar hajmini o'tgan yillar darajasida

saqlab qolgan yoki oshirgan kompaniyalar barqarorlik va ishonchni namoyon etadi.

Risklarni boshqarishning dividend siyosatiga integratsiyasi kompaniyaga uzoq muddatli maqsadlar, aksiyadorlar manfaatlar va bozor barqarorligiga mos keluvchi izchil va barqaror dividend siyosatini shakllantirish imkonini beradi. Risklarni baholash tizimini dividend siyosatiga qo'shish orqali kompaniyalar o'zgaruvchan pul oqimlari, bozor o'zgaruvchanligi, tartibga solishdagi o'zgarishlar va makroiqtisodiy shoklarning dividend siyosatiga ta'sirini doimiy ravishda kuzatib borishi mumkin. Bu yondashuv ortiqcha dividend to'lovlarining oldini oladi, likvidlikni saqlab qoladi va investor ishonchini mustahkamlaydi.

1-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini ishlab chiqishda risklarni boshqarish strategiyasini integratsiya qilish yo'nalishlari

Yo'nalishlar	Izoh	Dividend siyosatiga ta'siri
Likvidlikni boshqarish	Operatsion ehtiyojlar va kutilmagan zarbalarni qoplash uchun naqd pul zaxirasini saqlash	Ortiqcha dividend to'lashning oldini oladi va moliyaviy sog'lomlikni saqlab qoladi
Ssenariylar tahlili	Turli xavfli jarayonlarni simulyatsiya qilish uchun moliyaviy modellarni qo'llash	Kutilayotgan xatarlarga qarab dividend darajasini oldindan moslashtirish imkonini beradi
Kapitalni saqlab qolish	Noaniq bozor sharoitlarida moliyaviy barqarorlikka e'tibor qaratish	Kompaniyaning uzoq muddatli qiymatini saqlaydi va aksiyadorlarning ishonchini mustahkamlaydi
Dividend	Xavf darajasi yoki pul oqimi cheklanganida dividendni kamaytirish yoki vaqtincha to'xtatish	Uzoq muddatli strategik yondashuvni va ehtiyotkor moliyaviy boshqaruvni namoyon etadi
Investorlar ishonchi	Xavfga asoslangan ochiq dividend qarorlari aksiyadorlar ishonchini oshiradi	Noaniqlikni kamaytiradi, bozordagi imidjni barqarorlashtiradi va uzoq muddatli investorlar bilan aloqani mustahkamlaydi
Korporativ strategiyaga integratsiya	Dividend siyosatini xavf boshqaruvi va umumiy boshqaruv tuzilmalari bilan uyg'unlashtirish	Kompaniya obro'sini, javobgarligini va manfaatdor tomonlar uyg'unligini kuchaytiradi
Kapital tuzilmasiga ta'siri	Dividend to'lovlari va o'zlashtirilgan foyda o'rtasida muvozanatni saqlash	Sog'lom moliyaviy ko'rsatkichlar va kredit reytingini saqlab qolishga yordam beradi
Uzoq muddatli barqarorlik	Qisqa muddatli maksimal dividenddan ko'ra, barqaror to'lov qobiliyatini saqlashga e'tibor qaratish	Moliyaviy chidamlilikni kuchaytiradi, aksiyadorlar qiymatini muntazam oshiradi va bozordagi raqobatbardoshlikni ta'minlaydi

Dividend siyosati doirasida ssenariy tahlili, stress-test va sezgirlikni modellashtirish

kabi yondashuvlarni qo'llash boshqaruvga turli xavf sharoitlarida to'lov ssenariylarini

simulyatsiya qilish imkonini beradi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini takomillashtiradi va bozordagi buzilishlar yoki yuzaga keladigan tahdidlarga javoban dividend taqsimotini moslashtirish uchun proaktiv mexanizmni shakllantiradi. Ayniqsa, risklarni boshqarish tamoyillarini dividend strategiyasiga integratsiya qilish shaffoflik va javobgarlikni oshiradi. Bu esa aksiyadorlarga kompaniya tomonidan dividendlar bo'yicha qarorlar moliyaviy imkoniyatlar va risklarga asoslangan

puxta tahlilga tayangan holda qabul qilayotganini ko'rsatadi.

Bunday shaffoflik, ayniqsa barqaror va prognoz qilinadigan daromad oqimlarini afzal ko'radigan institutsional investorlar orasida ishonchni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, dividend to'lovlarining qisqarishi yoki to'xtatilishi bilan bog'liq salbiy ta'sirlarni yumshatish orqali kapital bozorlari barqarorligiga ijobiy hissa qo'shadi.

2-jadval

Akiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini rivojlantirish yo'nalishlari

Rivojlantirish yo'nalishi	Dividend siyosatini rivojlantirish bo'yicha strategik harakatlar	Kutilayotgan natijalar
Korporativ strategiya bilan uyg'unlashtirish	Dividend siyosatini umumiy moliyaviy maqsadlar va uzoq muddatli strategiya bilan integratsiya qilish	Dividend to'lovlari, o'sish maqsadlari va kapital tuzilmasi o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlaydi
Taqsimlanmagan foyda va to'lovlar muvozanati	Aksiyadorlarni rag'batlantirish bilan birga o'sishni qo'llab-quvvatlovchi optimal to'lov nisbatini belgilash	Moliyaviy moslashuvchanlikni saqlaydi va aksiyadorlar kutgan natijalarni qondiradi
Shaffoflikni oshirish	Dividend qarorlarini, ularning asosini va kelajakdagi istiqbolini aniq tushuntirish	Investor ishonchini mustahkamlaydi, noaniqlikni kamaytiradi va bozor ishonchini kuchaytiradi
Iqtisodiy sharoitlarga moslashish	Dividend siyosatini makroiqtisodiy tendensiyalar, foiz stavkalari va inflyatsiya asosida yangilash	Iqtisodiy o'zgarishlarga chidamlilikni ta'minlaydi va pul oqimining barqarorligini saqlaydi
Sohaviy standartlarga moslashuv	Dividend siyosatini soha amaliyoti va raqobatchilar ko'rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish	Raqobatbardoshlikni oshiradi va bozor kutilmalariga mos keladi
Soliq samaradorligi	Turli bozorlardagi amaldagi soliq tartiblariga mos holda dividend siyosatini optimallashtirish	Soliq yukini kamaytirish orqali investorlarga jozibadorlikni oshiradi
Manfaatdor tomonlar bilan muloqot	Dividend bo'yicha qarorlar qabul qilishda (aksiyadorlar, tahlilchilar, tartibga soluvchilar)ni jalb qilish	Kutilmalarni moslashtiradi, muloqotni rivojlantiradi, uzoq muddatli ishonchli aloqalarni shakllantiradi
Riskni boshqarishga integratsiya	Dividend siyosatini shakllantirishda xavf tahlilini inobatga olish	Ortiqcha to'lovlarning oldini oladi, inqiroz davrlarida kapitalni asrashga yordam beradi

Kompaniyalarda dividend siyosatini ishlab chiqish uzoq muddatli korporativ strategiyaga mos keluvchi keng qamrovli yondashuvni talab qiladi. Dividend to'lovlari kompaniyaning moliyaviy maqsadlari va kapital tuzilmasidagi ustuvorliklarini aks

ettirishi orqali ichki izchillikni ta'minlab, barqaror qiymat yaratishni qo'llab-quvvatlaydi. Taqsimlanmagan daromadlar va dividend to'lovlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash moliyaviy moslashuvchanlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu esa kompaniyaga bir

vaqtning o'zida aksiyadorlarga dividend ajratish va o'sish imkoniyatlariga sarmoya kiritish imkonini beradi, shuningdek, bozor noaniqliklariga nisbatan barqarorlikni oshiradi.

Dividend siyosatining yana bir muhim jihati — bu shaffoflik darajasini oshirishdir. Dividend qarorlarining asoslari va istiqbollari to'g'risidagi ochiq kommunikatsiya investorlar ishonchini mustahkamlab, noaniqlikni kamaytiradi va bozor ishonchining ortishiga xizmat qiladi.

Dinamik iqtisodiy sharoitda kompaniyalar dividend siyosatini makroiqtisodiy tendensiyalar, foiz stavkalari va inflyatsiya bosimi kabi omillarga mos ravishda qayta ko'rib chiqishlari zarur. Bu esa nafaqat pul oqimining barqarorligini ta'minlaydi, balki operatsion barqarorlikni ham kuchaytiradi.

Sohaviy taqqoslash (benchmarking) ham dividend siyosatini shakllantirishda muhim vositadir. Sektor standartlari va raqobatchilar amaliyotiga moslashish kompaniyaning raqobatbardoshligini saqlab qolish va investorlarning kutilmalariga javob berish imkonini oshiradi.

Bundan tashqari, kompaniyaning hayotiylik sikli asosida dividend siyosatini moslashtirish ham dolzarbdir. O'sish bosqichida bo'lgan firmalar daromadni qayta investitsiya qilishga urg'u berishi mumkin, rivojlangan bosqichda esa barqaror dividend to'lovlarga o'tish orqali investorlarning barqaror daromad kutilmalariga moslashadi.

Dividend siyosatini shakllantirishda soliq samaradorligi ham muhim omil hisoblanadi. Turli soliq rejimlarini inobatga olib dividendlarni optimallashtirish investorlar uchun soliqqa tortilgandan keyingi daromadni oshirishga xizmat qiladi, bu esa kompaniyani global investorlar uchun yanada jozibador qiladi.

Dividend siyosatini muntazam ko'rib chiqish strategik moslashuvchanlikni saqlash, bozor o'zgarishlari va manfaatdor tomonlar ehtiyojlariga tezkor javob berish imkonini

yaratadi. Shu jarayonda manfaatdor tomonlar, xususan, aksiyadorlar, tahlilchilar va tartibga soluvchilar bilan ochiq muloqot olib borish uzoq muddatli ishonchli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yakunda, risklarni boshqarishni dividend siyosatiga integratsiya qilish ortiqcha to'lovlardan himoya qiladi, o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda kapitalni saqlab qolishga ko'maklashadi va kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi hamda bozor raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, dividend siyosatini korporativ risklarni boshqarish strategiyasi hamda uzoq muddatli moliyaviy maqsadlar bilan muvofiqlashtirish kompaniyaning barqaror o'sishini ta'minlash, aksiyadorlarga izchil daromad oqimlarini taqdim etish va umumiy qiymat yaratish jarayonini kuchaytirishning asosiy shartidir.

Ikkinchidan, dividend to'lovlari va taqsimlanmagan foyda o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlash kompaniyaga moliyaviy moslashuvchanlikni saqlab qolish, aksiyadorlar kutilmalariga javob berish va shu bilan birga kompaniyaning kapital tuzilmasi hamda istiqboldagi investitsiya ustuvorliklarini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Uchinchidan, dividendlar bo'yicha qarorlar qabul qilishda shaffoflikni ta'minlash, taqsimot asoslarini aniq tushuntirish va kelajakdagi prognozlar bilan bo'lishish investorlar ishonchini mustahkamlaydi, bozor noaniqligini kamaytiradi va umumiy moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, makroiqtisodiy tendensiyalar, foiz stavkalarining o'zgarishi hamda inflyatsion bosimlar kontekstida dividend siyosatini moslashtirish kompaniyaning moliyaviy barqarorligini

saqlash va murakkab iqtisodiy sharoitlarda ham operatsion faoliyatini davom ettirish qobiliyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Devora Peña-Martel, Jerónimo Pérez-Alemán, Domingo J. Santana-Martín. *We are watching you: Are you ready to pay dividends?* *Borsa Istanbul Review*, Available online 6 August 2023.
2. Zeyu Sun, Xiaohui Li, Jing Xie, C.S. Cheng. *How does dividend payout affect corporate social responsibility? A channel analysis.* // *Journal of Financial Stability*, Volume 68, October 2023.
3. Sung Won Seo, Jong Hwa Lee. *Peer effect on dividends and return comovement.* // *The North American Journal of Economics and Finance*, Volume 67, July 2023.
4. Dimitris K. Chronopoulos, Edie Erman Che Johari, Bert Scholtens, Anna L. Sobiech, John O.S. Wilson, Muhammed H. Yilmaz. *Competition and bank dividends.* // *Journal of International Money and Finance*, Volume 137, October 2023.
5. Szymon Stereńczak, Jarosław Kubiak. *Dividend policy and stock liquidity: Lessons from Central and Eastern Europe.* // *Research in International Business and Finance*, Volume 62, December 2022.
6. R.M. Ammar Zahid, Alina Taran, Muhammad Kaleem Khan, Ionela-Corina Chersan. *ESG, dividend payout policy and the moderating role of audit quality: Empirical evidence from Western Europe.* // *Borsa Istanbul Review*, Volume 23, Issue 2, March 2023, Pages 350-367.
7. Pancheng Guo, Shi Li, Yan Wang. *Asset pricing with dividend surprises.* // *Finance Research Letters*, Volume 58, Part B, December 2023.
8. Devora Peña-Martel, Jerónimo Pérez-Alemán, Domingo J. Santana-Martín. *We are watching you: Are you ready to pay dividends?* // *Borsa Istanbul Review*, Volume 23, Issue 5, September 2023, Pages 1235-1249.
9. Elmirzayev, S., and S. Omonov. "Rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosati tahlili va Dividend Aristokratlari." *Xalqaro moliya va hisob* ilmiy-elektron jurnali 2 (2020).